

TA'LIM TIZIMIDA HUQUQSHUNOSLIK FANLARINING JAMIYATDA HUQUQIY ONG
VA HUQUQIY MADANIYATNING RIVOJI UCHUN AHAMIYATI

Mullajonov Rahmatjon Olimjon o'g'li

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

2-bosqich o'quvchisi.

Annotasiya: Ushbu maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirda nimalarga e'tibor berish kerakligi. Ta'lim tizimidagi islohotlarning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, yurisprudensiya, ta'lim tizimi.

Ma'lumot yoki huquqni bilishi tufayli huquqshunoslarning xarakteri "ijtimoiy muhandis" deb hisoblanadi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlashda huquqiy tarbiya muhim o'rin tutadi. Yuridik ta'lim sifatini oshirish uchun mamlakatimizda TDYU, yurisprudensiya yo'nalishlari mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasalari va O'zbekiston Respubikasi Adliya Vazirligi yuridik texnikumlarida keying yillarda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga ozdek ko'rinmoqda.

Jamiyatdagi huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham huquqqa oid fanlarni o'qitilishini isloh qilish lozim. Chunki, yo'qorida sanab o'tilgan oliy va professional ta'lim muassasalarining o'zi bilan kerakli natijaga erishib bo'lmaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida nima sababda huquq fanlariga kam soat ajratilganligini tushunmayman. Haftasiga 1 soat O'zbekiston Respubikasi Konstitutsiyasini o'rganishga, 1 soat huquqshunoslik yoki davlat huquq nazariyasiga ajratilishi kamdek tuyulmoqda.

Jamiyatimizdagi har bir shaxs quyidagilarni bilishi zarur deb hissoblayman:

HUQUQIY ONG - bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo'lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq-tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo'lgan g'oyalar, his tuyg'ular, tasavvurlar yig'indisidir;

HUQUQIY RUHIYAT - alohida ijtimoiy guruh, shaxs yoki butun jamiyatda stixiyali ravishda vujudga keladigan huquqiy tuyg'ular, hissiyotlar, kayfiyatlar, fikrlar yig'indisidan iborat;

HUQUQIY MAFKURA - bu sinfnig, jamiyatning huquqiy qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari va talablarining ilmiy tizimlashtirilgan ifodasidir;

HUQUQIY MADANIYAT - bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishi;

HUQUQIY TARBIYA - bu jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali singdirib borish jarayoni;

HUQUQIY NIGILIZM – bunda (lot. “nihil”-“hech narsa”) huquq sub’ekt(lar)ining amaldagi huquq normalarini mensimasligi, ularga hurmatsizlik munosabatida bo’lishi yoki inkor qilishi tushuniladi.

2023-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi oliy va professional ta’lim tizimidagi yurisprudensiya yo‘nalishlariga asosiy fan sifatida huquqshunoslik fanining tanlanishi biroz bo‘lsada vaziyatni o‘zgarishiga sabab bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Endi abituriyentlar tarix fani o‘rniga huquqshunoslik fanini mukammal o‘rganishga harakat qilmoqdalar. Ammo masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish, huquqshunoslik yoki davlat huquq nazariyasi kabi fanlarni boshqa soha vakillar o‘tishmoqda. Agar ushbu fanlarni haqiqiy yurisprudensiya sohasi vakillari o‘tishganda edi vaziyat 180 gradusga o‘zgargan bo‘lar edi. Har haqday sohani uning mutaxassisidan boshqa soha vakillari mukammal darajada tushuntura olmaydi.

Hozirgi kunda deyarli O‘zbekistondagi barcha oliy ta’lim muassasalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi yuridik texnikumlarda o‘qitish kredit-modul tizimida olib borilmoqda. Bu tizim AQSh, Yevropa, Sharqiy Osiyo davlatlarida muvoffaqiyatli tarzda qo‘llanilmoqda va aytish mumkinki ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Kredit-modul tizimining o‘quvchi va talabalarga afzalliklari juda ko‘p. Ushbu tizimi o‘quvchi va talabalarni mustaqil o‘qishga, izlanishga majbur qiladi. “Ming eshitgandan bir bor ko‘rish afzalroq” – deb bekorga aytmagan dono xalqimiz. O‘quvchi yoki talabalar mustaqil tayyorgarlik jarayonida professor-o‘qituvchilar bilgan, o‘qigan kitoblarni, adabiyotlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib o‘qishadi, yoki bo‘lmasa hozirgi hayotimizning ajralmis qismiga aylanib borayotgan internet tarmoqlari orqali o‘zlariga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni qidirib topib o‘qishadi. Buning uchun esa AKT yoki IT sohalaridan foydalanishni o‘rganish talab etiladi. O‘ziga kerak bo‘lgandan keyon o‘quvchi va talabalar bu sohani ham mukammal o‘rganishga harakat qilishadi. Hozirgi kunda “Raqamli ...” qo‘shimchasi bilan ishlatiladigan so‘z birikmalari ko‘payib ketdi. Kelajakda “Raqamli yurisprudensiya” iborasi paydo bo‘lsa hech ham ajablanmayman. Ghunki yangi O‘zbekistonda yashayabmiz, boshqa sohalar kabi yurisprudensiya sohasi ham rivojlanmoqda. 2023-yil huquq sohasidagi islohotlarga boy bo‘lmoqda, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining referendum orqali qabul qilinishi, yangi tahrirdagi “Mehnat Kodeksi”ning kuchga kirishi va h.k Bir so‘z bilan aytganda evolyutsiya bor ekan rivojlanish albatta bo‘ladi. Har qanday islohot jamiyat rivojlanishi va xalq farovonligi uchu xizmat qiladi.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 23.09.2020
2. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. Lex. Uz

3. O‘zbekiston Respublikasida “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 8.10.2019 y. PF-5847-son <https://lex.uz/ru/docs>